



## MUROJAAT – NUTQIY ETIKETNING MUHIM KOMPONENTI

**Atoyeva Shamsiya Rahmon qizi,**

Buxoro davlat universiteti , lingvistika: O‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich  
magistranti. Elektron pochta: [s.r.atoyeva@buxdu.uz](mailto:s.r.atoyeva@buxdu.uz)  
(Filologiya yo‘nalishi. Tel:914074464)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nutqiy etiket, uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, shuningdek, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan murojaat birliklari haqida, jumladan, undalma va murojaat shakllarining o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari haqida so‘z yuritiladi. Aytish lozimki, o‘zbek tilida qo‘llanilgan murojaat shakllari o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, ular orqali bizning suhbat jarayonimiz mukammallashadi. Maqolada ularning, asosan, tarixiy shakllari badiiy asarlar misolida tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** Etiket, nutqiy etiket, murojaat birliklari, undalma, adresant, adresat, tarixiy murojaat shakllari, nutqiy vaziyat, makon, zamon

**Abstract.** This article talks about speech etiquette, its role in the life of society, as well as the units of reference in the Uzbek language, including the similarities and differences between imperatives and references. It should be said that the forms of address used in the Uzbek language have a unique appearance, and through them our conversation process is perfected. In the article, their mainly historical forms are analyzed on the example of artistic works.

**Key words:** Etiquette, speech etiquette, address units, impulse, addressee, addressee, historical forms of address, speech situation, space, time

Insoniyat ma'lum bir jamiyatda yashar ekan, atrofdagilari bilan muloqotga doim ehtiyoj sezadi. Jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, avvalo, nutqda, murojaat shakllarida o'z aksini topadi. Chunki til ijtimoiy hodisadir. Har bir millatning o'ziga xos muloqot-murojaat shakllari mavjud. Kommunikantlarning suhbat jarayonida bir-

birlariga o'zaro hurmat ko'rsatishlari muloqotning eng yuksak etiketi hisoblanadi. Nutqiy etiketning asosini murojaatlar tashkil etadi.

Tilshunoslikda “nutq etikasi ” atamasi xususida fikr yuritilar ekan, avvalo, “etika” tushunchasiga ta'rif berib o'tishimiz lozimdir. Sababi nutq etikasi – umumetiketning asosini tashkil etuvchi qismidir. Etika- kishilarning o'zaro munosabati, jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi muhim omildir. Jamiyatning asosini inson boshqalar bilan munosabatga kirish jarayonida o'zini qanday tutishi, kim bilan qanday muloqotda bo'lishini belgilab beruvchi axloqiy me'yorlar tashkil etadi.

Dastlab, “ O'zbek tilining izohli lug'ati”dagi “Etiket” atamasining izohiga e'tiborimizni qaratib o'tsak.

Etiket-fr etiquette — odob-axloq; marosim tartibi. Biror jamiyatda, ijtimoiy guruh va sh.k. da qabul qilingan o'zaro muomala, odob-axloq; marosim tartibi, qoidalarini.<sup>1</sup> Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib, etiket fransuzcha so'z bo'lib, u o'zini tutish uslubini anglatadi. U jamiyatda qabul qilingan xushmuomalalik va odob-axloq qoidalarini o'z ichiga oladi. Etiket odob-axloq jamlanmasi, insonlarning o'zaro munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladigan, ularning tashqi va ichki madaniyatini ochib beruvchi axloqiy me'yor, deb atash bo'ladi.

Tilshunoslikda etika muloqot jarayonining muhim tarkibiy qismi, shuningdek, samarali muloqot tashkil etishning asosiy nazoratchisi sifatida qaraladi.

Bizningcha ham, etiket xulq-atvor, odob-axloq qoidalarining majmuasi bo'lib, atrofdagilar bilan muloqotda, jamoat joylarida o'zini tuta bilish, gap-so'zi, muomala va kiyinish madaniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda, etiket-insonning qanday ekanligini ko'rsatib beruvchi oynadir.

---

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. -T.:2007.-B 61

Aslida etiket tushunchasining kelib chiqishi eramizdan avvalgi 2,5 - 3 ming yillikda Qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Etiket atamasi esa XVII asrning oxirida vujudga kelgan. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalari ta'biy, rasm-rusm hamda odatlar shaklida azaldan ibtidoiy davridayoq, qabilalarda mavjud bo'lganligini asoslaydi. Avvalida bunday qoidalar nafaqat axloqiy, balki huquqiy, iqtisodiy, diniy hamda qon-qarindoshlik munosabatlarni ham qamrab olgan edi. Jamoatning har bir a'zosi unga so'zsiz bo'ysunar edi. Keyinchalik esa bu qoidalar mustaqil ravishda ajralib chiqib, faqatgina axloqiy me'yorlar darajasida ko'rila boshlandi. Bugungi kunda ham etiket axloqiy me'yorlarning eng oliy ko'rinishidir.

Etiket juda keng tushuncha bo'lib, uning bir qancha turlari mavjud. Shulardan nutqiy etiket etiketning bir ko'rinishidir. Nutqiy etiket-axloqiy me'yorlar, milliy - madaniy an'analarga asoslangan to'g'ri nutqiy xulq-atvor qoidalari. Kundalik faoliyatimizda ,jumladan,uyda,ko'chada,ish jarayonida doimiy muloqaotda bo'lamiz.Aynan muloqot jarayonida nutqiy etiket namoyon bo'ladi.Nutqiy odobning qay darajadali muloqot davomiyligini,uning natijalarini ko'rsatib turadi. Muloqot jarayonida turli murojaatlardan foydalanamiz. Murojaatlar nutqimizni yanada go'zallashtiradi.Natijada, murojaatlar -nutqiy etiketning muhim tarkibiy qismi ekanligini anglaymiz.

Etiket jamiyat tomonidan ishlab chiqilaigan va shu jamiyat a'zolari bo'ysunishi lozim bo'lgan axloq-odob qoidalari. Etiket har bir davlatning tashqi siyosatida ,elchilik aloqalarida ham muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy etiketning vujudga kelishiga 1278 – yilda qadimgi Misr davlatiga borib taqaladi.

Qadimgi Yunonistonda esa elchilar o'z yurtining etikasini ko'rsatib beruvchi asosiy vosita bo'lishgan.

Turon zaminda ham qadimdan etiket qoidalari mavjud bo'lgan.Bu o'z navbatida qadimiy pandnomalarda o'z askini topgan.Chunki Abu Ali ibn Sino bobomiz

ta'kidlaganlaridek,:"G'arb ko'proq real hayotni ko'rsatish orqali,Sharq esa pand-nasihat orqali jamiyatni tarbiyalaydi".

Faylasuf Abdulla Sher etiketning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Etiket – takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan muomala hodisasi".

Etiket qoidalari jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ular muloqot jarayonida kishilarning bir-birini tushunishiga,suhbat jarayoning qay darajadi shakllanishiga va eng muhimi muloqotning o'z maqsadiga yetib,ijobiy yakunlanishiga ko'mak beruvchi vositadir. Etiketning muhim komponenti bo'lmish nutq etikasining mavjudligi insonlar orasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, jamiyat taraqqiyotiga ,rivojiga katta hissa qo'shadi. Nutqiy etiket so'zni o'z o'rnida,ya'ni nutq vaziyati,shatoit,suhbatdoshning yoshi,jinsini hisobga olib qo'llay olishdir.Nutqi etikasi har bir adresat va adresantning madaniyatidan darak berib turadi. Nutq etikasi insonning qandayligini ko'rsatib beruvchi vosita bo'lib, jamiyatni go'zallashtiradigan,muammolarni osongina yoki tinch yo'l bilan hal qilivchi muhim omildir.Ayniqsa,bugungi tahlikali davrda nutq etikasidan samarali va o'rinli foydalanish muhimdir.

Biz boshqalar bilan munosabatga kirishar ekanmiz o'zimizning ma'lum bir muammomizni hal qilishni yoki biror reja tuzishni maqsad qilib qo'yamiz. Doim jamiyat a'zolari orasidagi munosabatlarda manfaatlar to'qnashadi. Chunki inson hayoti manfaatlar asosiga quriladi. Shu maqsadlarimiz qanday natijalar bilan tugashi bizning nutqiy etiketimizga bog'liq. Har qanday holat,vaziyat xoh insonlar orasida,xoh davlatlar o'rtasida bo'lsin nutq etikasining qay darajada qo'llanishiga bog'liq.

O'zbek tilida kundalik turmushda doimiy ishlatiladigan nutqiy etiketlar : "Yaxshimisiz?", "Qandaysiz?", "Qayerdانسiz?", "Turmushga chiqqanmisiz?", "Bolalardan nechta?", "Necha yoshdasiz?" kabilar. Bizda ishlatiladigan bunday murojaatlar boshqa millat vakillari uchun noo'rin bo'lishi mumkin.Bundan

tushunamizki, nutqiy etiket ostida milliy madaniyat, mentalitet tushunchalari ham yotadi. Nutq odobi madaniyatlararo ham farqlanadi.

Nutqiy etiket masalasi har doim ham tilshunoslar va ijodkorlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ammo uni ilmiy o'rganilishi faqat XX asrning ikkinchi yarmida boshlandi. V.S. Kostamorovning 1967-yilda nashr etilgan "Русский речевой этикет"<sup>2</sup> nomli maqolasi bu yo'nalishdagi izlanishning muqaddimasi bo'ldi. Xuddi shu davrdan boshlab tilshunoslik bilimlarning maxsus yo'nalishi- nutqiy etiket paydo bo'ldi.

Nutqiy etiketga lingvistik lug'atlarda turlicha ta'riflar berilgan. Bundan ko'rinadiki, bu masala qadimdan ham mavjud bo'lgan. Etiket, ayniqsa, nutqiy etiket har bir millatning mentaliteti, yashash tarzi, urf-odatlarini asosida farqlanadi. Bu tabiiy holdir, albatta.

Sharqda juda qadimdan so'z va so'zlashuv madaniyatiga alohida e'tibor berib kelingan. So'zning qudrati, uning ta'siri doimo shoiy va yozuvchilar, alloma-yu mutafakkirlarimizning diqqat markazida bo'lib kelgan va bu bugungu kunga ham o'z ahamiyatini yo'qotga emass

Nutqiy etiket qadimgi Sharqda "nutq odobi", "so'z odobi" deb nomlangan.

O'zbek nutqiy etiketini tadqiq etish masalasi uzoq tarixga borib taqaladi. Yozma yodgorliklarimiz uchun poydevor bo'lib kelayotgan xalq og'zaki ijodi bo'lmish maqollarda ham nutqiy etiketning jamiyat taraqqiyotida nechog'lik muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi. Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar, Yomon so'z bilar pichoq qinidan. Ish yugurigi oshga, til yugurigi boshga, O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir. Nonni katta yesang ham gapni katta gapirma, Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz. Bu kabi maqollarni uzoq davom ettirish mumkin.

Bundan tashqari, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz o'z asarlari orqali nutqning ta'sirchanligi so'zlashish odobi, so'zning qudratli kuchi xususida fikr

---

<sup>2</sup>Костомаров В. Г. Русский речевой этикет // Русский язык за рубежом, 1967, № 1. – С. 56-62.

yuritganlari yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Xususan, Alisher Navoiy o'zining "Nazmul javohir", "Muhokamat-ul lug'atayn", "Mahbub-ul qulub" hamda "Xamsa" tarkibidagi dostonlarining muqaddimasida o'zbek tilining so'z va jumla tuzishdagi imkoniyati va uning naqadar mukammalligini isbotlab bergan.

Shuningdek, Abdulla Qodiriyning: "So'z sozlashda va jumla tuzishda uzoq andisha kerak", - deb ta'kidlagani ham bejizga emas.

Yuqorida nomi tilga olingan allomalarning asarlarida nutqiy etiket masalasi alohida tadqiq etilmagan bo'lsa-da, ularning asarlarini nutqiy etiket nuqtayi nazaridan tahlil qilish tadqiqotchi olimlarimiz uchun manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Tadqiqotchi S.Mo'minov nutqiy etiket atamasini shartli ravishda "muloqot xulqi" tarzida qo'llaydi va uning mazmuniga quyidagicha izoh beradi: "Muloqot xulqi muammosi milliy xarakter-millat aholisining o'ziga xos urf-odatlarini, qadriyatlarini va an'analarni hisobga olmasdan turib o'rganish mutlaqo mumkin ems. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq"<sup>3</sup>.

B. Rahmatullayeva esa nomzodlik dissertatsiyasida nutqiy etiketni o'zbek va rus tillarida chog'ishtirib, farqlanishini "diqqat – e'tiborni jalb qilivchi so'zlar va murojaat shakllari vositasida ochib bergan"<sup>4</sup>. Tadqiqot natijalariga ko'ra, suhbat jarayonida kommunikantlarning etiket shakllarini tanlashi ularning yoshi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy mavqayi kabilar bilan bog'liqligini isbotlaydi.

Jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan nutqiy harakatlarning hammasi, avvalo, nutq etikasining qoidalari bilan tartibga solinadi. Nutq etikasi so'zlash, muomala odobi, muloqot madaniyati demakdir. Biz boshqalar bilan munosabatda kirishishimizda, suhbat jarayonida murojaatlarning o'rni beqiyosdir. Murojaatlar inson nutqini go'zllashtiruvchi kuchdir. Ular yordamida suhbatimiz davomiy bo'ladi

<sup>3</sup>Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – Б.12.

<sup>4</sup>Рахматиллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1992. – С.18.

hamda o'z maqsadiga yetadi. Muloqotning mazmunli bo'lishi adresat va adresantning nutqiy etikasiga bog'liq. Shu o'rinda nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, murojaatlardan foydalanish muloqot jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson ma'lum bir jamiyatda yashar ekan, atrofida gilari bilan doimiy muloqotda bo'ladi, albatta. Tabiiyki, suhbat jarayonida turli murojaat shakllaridan foydalanamiz. Biz kundalik muloqotimizni murojaatsiz tasavvur eta olmaymiz. Murojaatlar ham yozma, ham og'zaki nutqimizda faol qo'llanganligi sababli uni o'rganish muhim sanaladi.

Murojaat shakli tadqiqi haqida fikr yuritilganda, avvalo, Germaniyaning Kiyel universiteti olimlarining xizmatini ta'kidlab o'tish joiz. Taniqli nemis tilshunosi Verner Vitner 1975-yil yozida Kiyel universitetida ilmiy seminar o'tkazdi. Ushbu ilmiy seminar tildagi ijtimoiy strukturaning ifodasiga bag'ishlangan, unda murojaat shakllarining tadqiqiga alohida o'rin berilgan. Seminarda tilshunos V. Vitner rahbarligida tayyorlangan murojaat shakllarining o'rganishiga bag'ishlangan loyiha tasdiqlandi va uni amalga oshiruvchi bir guruh tilshunos olimlar jamoasi tuzildi.<sup>5</sup>

O'zbek tilshunosligida "murojaat" turli atamalar bilan nomlanadi: undalma<sup>6</sup>, vokativ kategoriya<sup>7</sup>, vokativ so'zlar, chaqiriq so'z, chaqiriq forma, chaqiriq kelishik, undash kelishik, murojaat terminlari<sup>8</sup>, murojaat shakllari<sup>9</sup>, murojaat ifodalovchi vositalar va murojaat so'zlar kabi.

"Murojaat" atamasi mustaqillik yillarida faol qo'llanib kelinmoqda. Shu o'rinda "undalma" va "murojaat" terminlari orasidagi tafovutni aniqlab olishimiz lozim. Chunki bu ikki atamani ba'zan biri o'rnida boshqasini almashtirib qo'llash hollari kuzatilmoqda. Tadqiqotimizning ham maqsadi shundaki, undalma va murojaat shakli orasidagi o'xshash va farqli jihatlarni yechish. Bunda ushbu ikki

---

<sup>5</sup> Qodirova M. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti. Filol.fan. nom. ...diss. – T., 2021.- B 24

<sup>6</sup> G'ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Sintaksis. - Toshkent: O'qituvchi, 1987. - B. 150.

<sup>7</sup> O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya. - Toshkent: Fan, 1972.

<sup>8</sup> Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konotativ tadqiqi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2008.

<sup>9</sup> Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2007.

atama haqida manbalarda berilgan ta'riflarni ko'rib chiqib qiyoslash orqali tadqiqotimizni davom ettiramiz. Shuningdek, maqolada tarixiy murojaat shakllarining badiiy asarlar misolida tahlilini ham olib boramiz .

O'zbek tilshunosligida undalma haqidagi dastlabki qarashlar A.G'ulomov asarlarida uchraydi.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa undalmaga quyidagicha ta'rif berilgan: "So'zlovchining nutqi qaratilgan boshqa bir shaxs yoki predmetni bildiradigan so'z yoki so'z birikmasi". Xo'sh, **Temir Mardonov**, bu gapga siz nima deysiz?<sup>10</sup>

1944- yilda A. G'ulomov, Z. Ma'rufov, T. Shermuhammedovlarning "O'zbek tili grammatikasi" kitobi nashr qilindi. Bu darslikda undalmaga quyidagi ta'rif berilgan: "So'zlovchining nutqi qaratilgan, shaxsni yoki predmetni bildirgan so'zlar undalma deyiladi" .

Shuningdek, 2019-yilda nashr qilingan 8- sinf ona tili darsligining 129-betida undalma haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi. Undalmalar ba'zan jonivorlar yoki jonsiz narsalarga ham qaratiladi: *Qarg'avoy, men seni yeyman. (Ertakdan) Seni unutilmas yuragim aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo. (G'.G'.)*

O'z navbatida , 2010-yilda nashr etilgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan darslikning 93-sahifasida ham undalma haqida yuqoridagi ta'riflar takrorlangan. *So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalab, gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan so'z yoki so'zlar birikmasiga undalma deyiladi.* Badiiy nutqda esa shaxs bildirmaydigan jonli va hatto jonsiz predmetlar ham undalma vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan, bag'rimni, ohang (A. Oripov).*

---

<sup>10</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".Davlat ilmiy nashriyoti.-T.:2007



Oliy ta'limdagi talabalarga mo'ljallangan R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Toshkent, 2009, 376-bet.) darsligida undalmaga quyidagicha ta'rif berilgan: So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs, predmetni ifodalovchi so'zshakl.

Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, undalma so'zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi va bu ma'lum nutq vaziyatidan kelib chiqadi.

Tadqiqotchi M. Qodirova o'zining ilmiy ishida D. E. Rozentalning tilshunoslik terminlari izohli lug'atida esa "murojaat" quyidagicha izohlangan: "Murojaat nutq yo'naltirilgan shaxs yoki narsani nomlash uchun qo'llanadigan ism, olmosh, otlashgan sifat yoki ularga teng keladigan ibora" deya aytib o'tadi.<sup>11</sup>

O'zbek tilining izohli lug'atida "murojaat" so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

- 1) ko'rib chiqish , taqqoslash;
- 2) biror narsa so'rash, ishni qayta ko'rish;
- 3) birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq<sup>12</sup>

Tadqiqotchilardan S. Mo'minov, M. Sulaymonov, N. Ahmedova, Sh. Iskandarova, Z. Akbarovalar o'zlarining ilmiy ishlarida undalma va murojaatning umumiy va farqli tomonlari, ifodalash usullari haqida ma'lumot berib o'tishgan. Tadqiqotchi Z. Akbarova undalma va murojaatning farqli va o'ziga xos tomonlarini yoritish ekan, murojaat ifodalovchi so'z ham mohiyatan grammatik aspektda yondashilsa, u undalmaga to'la mos tushadi degan fikrni aytib o'tadi. Lekin mazmunan murojaat obyektini ifodalovchi so'z murojaat shakli sifatida, so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obyektini ifodalaydi. Bundan ko'rinadiki, murojaat shakllari undalmaga nisbatan kengroq tushunchani ifodalaydi. Demak, murojaat shakllari adresant va adresat orasidagi muloqotni vujudga keltirish bilan birga, kommunikantlarning o'zaro munosabati, yoshi, jinsi,

---

<sup>11</sup> Qodirova M. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti. Filo.fan. nom. ...diss. – T., 2021

<sup>12</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. -T.:2007

hurmati, shuningdek, muloqot shakllangan davr(zamon) va o'sha paytdagi ijtimoiy muhit, makonni ham o'zida aks ettiradi. Eng qizig'i murojaat shakllarida har bir xalqning milliy madaniyati o'z aksini topadi.

So'zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday o'rin tutishi, yoshi, jinsi, lavozimi, kasb-koriga qarab murojaat shakllari o'zgarib boraveradi. "Murojaat birliklari kundalik hayotimizda nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turlicha konnotativ ma'nolarni, semantik "ohanglarni" tashiydigan o'tkir ta'sirchan vositadir"<sup>13</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedova N.O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konotativ tadqiqi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2008.
2. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi.Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2007.
3. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989.
4. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2000.
5. Qodirova M. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti.Filo.fan. nom. ...diss. – T., 2021
6. Rasulov I. Murakkab sintaktik butunlik. O'zbek tili va adabiyoti. 1983, № 1.
7. Rasulova Q. O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2008.
8. Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T , 2007
9. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya.-Toshkent:Fan,1972.

---

<sup>13</sup> Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi.Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2007.

10. O‘rinboev B., Qong‘urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning tahlili. Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 216 b.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. ”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti.-T.:2007
12. G‘ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Sintaksis.- Toshkent:O‘qituvchi,1987.-B. 150.
13. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. – T., O‘qituvchi, 1983.
14. Сайфуллаев А. Р. Хозирги ўзбек адабий тилида ундалма. Тошкент, 1968.